



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

“XAMSA” DOSTONIDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI

Zulayho Abdurahmon

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, PhD

E-mail: zuleyha2008@mail.ru

Annotatsiya

Alisher Navoiy shaxsi, arboblik faoliyati har doim ijodkorlik salohiyati bilan yonma-
yon o‘rganilgan. Shoirning komil shaxsini o‘rganishda birlamchi manba o‘z asarlaridir.
Maqolada “Xamsa” dostoni asosida shoir siymosi yoritiladi. Dostondagi faxriyalarga e‘tibor
qaratiladi.

Kalit so‘zlar: shaxsiyat, doston, fano, malomat, ilhom, na‘t, munojot.

ЛИЧНОСТЬ АЛИШЕРА НАВОИ В ДАСТАНЕ «ХАМСА»

Зулайхо Абдурахмон

Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН Республики

Узбекистан, старший научный сотрудник; PhD

E-mail: zuleyha2008@mail.ru

Аннотация

Личность Алишера Навои и его деятельность как государственного деятеля
всегда изучались в тесной связи с его творческим потенциалом. Основным источником
для исследования совершенного образа поэта являются его собственные произведения.
В статье освещается образ поэта на основе «Хамса». Особое внимание уделяется
фахриям в дастане.

Ключевые слова: личность, дастан, фано, маломат, вдохновение, наът,
мунажат.

ALISHER NAVOI'S PERSONALITY IN THE “KHAMSA” EPIC

Zulayho Abdurahmon

*Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the
Republic of Uzbekistan, Senior Researcher; PhD*

E-mail: zuleyha2008@mail.ru

Abstract

The personality of Alisher Navoi and his activities as a statesman have always been
studied alongside his creative potential. The primary sources for exploring the poet's ideal
character are his own works. This article highlights the figure of the poet based on the
“Khamsa” epic. Special attention is given to the fakhriya (self-praise) passages within the poem.

Keywords: personality, poem, fano, malomat, inspiration, na‘t, munajat.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, jumladan, uning ijodkor shaxsiyati hamda
kamoloti dunyo adabiyotshunosligida hamisha muhim mavzulardan sanalgan. Bu mavzuni
yoritishda olimlar turli manbalarga tayanishgan. Avvalo, mutafakkir shoirning o‘z asarlari,
so‘ngra esa unga bag‘ishlangan maxsus kitoblar, tazkiralardagi ma‘lumotlar, xalq orasida
tarqagan rivoyatlar. Ammo har doim Navoiyning o‘z asarlari bosh manba o‘laroq tanlangan.
Zero, Alisher Navoiyning turkiy adabiyot taraqqiyotidagi shoirlik maslagi, temuriylarning
ulug‘ saltanatidagi arboblik faoliyati, o‘z zamonining ma‘naviy bir yo‘lboshchisi, xullas,
Allohnig solih qullaridan ekanligi uning har bir asarida o‘z tasdig‘ini topgan. Albatta, sharq
va g‘arb navoiyshunosligi bu haqiqatni teran anglagan va deyarli, mana shu to‘g‘ri yo‘ldan
borishgan. Ta’kidlash joizki, bugungi navoiyshunoslik mazkur an’anani munosib davom
ettirishi va erkinlik imkoniyatlaridan foydalangan holda yanada Navoiy siymosini mukammal
holda yaratmog‘i lozim. Bunda shoir ijodining gultoji sanalgan “Xamsa” asari o‘ziga xos
o‘ringa ega. Navoiy har bir asarida ma‘lum bir mavzuni yoritishni maqsad qilgan. Shu bois

tarixlar, tazkiralalar, holotlar, tilshunoslikka oid “Muhokamat ul-lug‘atayn”, adabiyotshunoslikka oid “Mezon ul avzon”, din ta’limotiga oid “Siroj ul muslimin”, hayot yo‘li aks etgan “Vaqqiya” va hokazo asarlar yozgan. Ammo uning ilohiyotshunosligi, odamshunosligi, muarrixligi, siyosatchiligi, til targ‘ibotchisi ekanligi, xullas, barcha salohiyati “Xamsa” asarida jamlangan. Ta’kidlash joizki, turkiy olamda uning shoirlik rutbasi, turkiy til jonkuyari ekanligi alohida hodisa. “Xamsa” dostonida Navoiyning shoirlik maqomi, adabiy shaxsiyati mavzusini yoritishda asosan quyidagi tasnifga asoslanish lozim:

1. Dostonning mavzu ko‘lami, mukammal kompozitsiyasi va obrazlarida shoir mahorati.
2. Navoiyning munajat va faxriyalari, mug‘anniyga murojaatlari.
3. Ustoz salaflarning e’tirofi.

Avvalo, Navoiyning muhtasham “Xamsa” dostoni g‘oyibdan kelgan ilhom mahsulidir. Buni shoir turli o‘rinlarda xotirlatadi.

Chu hotif manga bu nido ayladi,

Men etgan adoni ado ayladi.

Yetib g‘aybdin chun bu neru manga,

Bo‘lub so‘z demak mayli asru manga.

Mutasavvif shoirga g‘aybdan bir nido yetadiki, qisqa muddat ichida shunday ulkan asarni yakunlashga muvaffaq bo‘ladi. Dostondagi ma’lumotlarni jamlaganda ham butun bir shoir shaxsiyatini yaratish mushkul. Chunki Navoiy bir qarasang, ishqni o‘ziga hodiy aylagan, shuttor tariqida xoru xas Majnun, bir qarasang, shohlikni rad etib, ma’naviy sultonlikka erishgan Farhod, yana bir qarasang hakim, valiy Iskandarga aylanadi. Barcha fikr-qarashlarni jamlaganda ham bunday ulkan shaxsiyat va kamolotning hayroniga aylanasan xolos. “Lison ut-tayr” dostonida keltirilgan “Ko‘rlar va fil hikoyati”dagi basirat sohiblari kabi Navoiyning ma’lum bir qirrasinigina kashf etish mumkin.

Navoiyning millat, insoniyat uchun xizmatlarini sarhisob etish qiyin. Biroq shoirlikdagi ilhom huzuri barobarida turkiy tilni irfoniy-badiiy bir tilga aylantirish maqsadmaslagi muhim bo‘lgan. Shoirning mastligi so‘z mayidan edi. Turkiy til ma’nisidan mast bo‘lib, bu tilda asar yozish ishtiyoqi bilan yonadi Navoiy:

Menki bu may nash‘asidin mast men,

Dayri fano ahlig‘a hamdast men.

Har nafas aylab to‘la ul jomni,

Sipqorib ul bodai gulfomni.

Turk surudi bila solib qo‘lum,

Qilsam ado hay tulugum, hay tulum, -

iqrori fikrimizni to‘la tasdiqlaydi. Shubhasiz, A.Navoiy o‘z ona tilining targ‘ibotchisi va turkiy til yalovbardoridir. Turkiy tilning, deyarli, ming yillik taraqqiyotida “hech kim oncha ko‘b va xo‘b aytqon emas”. Shoir badiiy janrlarning barchasida turkiy tilda ijod qilib, mazkur tilning badiiy, lekcik, grammatik va stilistik imkoniyati kengligi va rang-barangligini ham amaliy, ham nazariy isbotlab berdi. Navoiy an’anaga, ularning til materiallariga tayandi, turkiy urug‘ va qabilalarning shevalaridan keng foydalandi. Navoiy ijodida turkiy sheva va tillar qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki buyuk ijodkor tasavvurida juda ko‘p shevali turkiy til, xuddi shunday ko‘p shevali arabiy va forsiy tillar kabi imkoniyati bemisl ekanligi dalillanadi. Bu bilan qalblarni fath etgan Navoiy asarlari barcha turkiy tillarga mansubligini o‘zi ham e’tirof etgan:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,

Muayyan turk ulusi xud meningdur.

Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,

Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.

Navoiy ijodiyotidagi ma'no va hol uyg'unligi, tasvir va bayon sehri ham turkiy tilning imkon va imtiyozlarini ko'rsatib beradi.

Navoiyda boshqa shoirlarda uchramaydigan malomatvashlik, fanovashlik bor. Dostondagi ko'plab boblar, xususan, hamd va na'tlar so'nggida shoir shaxsiyatini yorqin namoyon etuvchi iltijolar keladi:

Qilmay da'viyi xush adoliq,
Arz ayla, Navoiyo, gadoliq.
Yo Rab, eshigingda ul gadomen
Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen.
Boq dardu malolating'a, Yo Rab,
Rahm ayla bu holating'a, Yo Rab.

Navoiyning holi, ma'naviy qiyofasi mana shu kabi munojotlarda tiniq chizgilarda beriladi. Dostonning ushbu o'rinlaridagi kechinmalarning o'ziyoq Navoiy shaxsiyatini, uning ma'naviy valodatini ko'rsatib beradi. Navoiy butun davrlar uchun o'zining axloqi bilan ibrat bo'lgan. Unda shiddat va xoksorlik, jasorat va to'g'rilik, uzrgohlik va keskinlik bo'lgan. U amaliyotchi edi. Xamsa yaratishda ham:

Navoiy, so'z ayturda farzona bo'l,
Chu ish boshingga tushti, mardona bo'!
deydi. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonida xamsanavislar orasida:

Bo'lsa alar ozimi dashti adam,
Men ham o'lay soya kibi hamqadam,
Kahfi baqo ichra alar bo'lsa gum,
Men ham o'lay robiuhum kalbuhum.

deya, o'zini as'hobi Kahfning sherigi o'rnida ko'rgan shoirning "Saddi Iskandariy"da shunday faxriyasi keladi:

Ki, so'z taxtida bo'ldum oromgir,
Bo'lay tahniyat bazmida jomgir!

Darhaqiqat, Navoiy so'z taxtida podshoh bo'ldi. Saltanat sohiblari hamisha jang maydonida bo'lishgan. Mujohadalar aslida e'tiqodlar, qadriyatlar kurashi ekanligiga tarix guvoh. Navoiyning shoirligi arbobliligini, arboblighi shoirligini hech qachon inkor qilmagan. Bilaks ular bir-birini to'ldirgan. Navoiy qalami bilan til, din, millat, umuman olganda bani basharning nafs tarbiyasi uchun kurashgan mujohiddir. Murshidi Abdurahmon Jomiy aytganidek, Navoiydagi hol va martaba biror bir shoirga berilgan emas. Ustoz Ibrohrim Haqqul ta'kidlaganidek: "Alisher Navoiy turkiy adabiyotning poytaxtidir. Hamma yo'llar unga boradi. Yoki hamma yo'llarga undan ketiladi. Uning bu qadar buyuk shaxsi va kamolini belgilashda asarlarining janr imkoniyatlarini inobatga olmoq zarur. Uning devonlari hol natijasidir. Najmiddin Kubro hazratlari "Hol chaqmoq kabidir" degan edi. Albatta, ular shoir rutbasini belgilashda chaqmoq kabi yo'l ochadi. Nasriy asarlarida "Men go'zal xulq ustida yaratildim" degan Rasulullohga ergashishda dastur amalni ko'rsatadi. Navoiy insoniyat tarbiyasida ham amaliyotchi, ham nazariyotchi sifatida "Xamsa"da bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 1–20 tomlar. –T.: "Fan", 1987–2004.
6. Rahmonova Z. Ishq, irfon va irshod. – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2021.